



Q.X POMETALI TERMINLARNING ETIMOLOGIK XUSUSIYATI BO‘YICHA TASNIFI

Islomova Shahnoza Abdurahmonovna
Renessans ta’lim universiteti
Filologiya kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada 6 jildli ‘zbek tilining izohli lug‘ati’da qisloq xo‘jaligi (q.x) pometasi ostida berilgan terminlarning umumiy soni 59 tasi izohlangan. Lug‘atda ‘‘Bir so‘z yasalishi asosidan hosil qilingan yasama so‘zlarga, zarurat bo‘lmagan hollarda etimologik ma‘lumot berilmadi. Faqat so‘z yasalishiga asos bo‘lgan so‘zgagina etimologik ma‘lumot berildi’’ kabi ma‘lumot borligini hisobga olib q.x pometali so‘zlar 59 sonidan bir -necha barobar ko‘pligini bilishimiz mumkin. Faqat bu so‘zlarga ‘‘zarurat bo‘lmagani uchun’’ q.x pometasi qo‘yilmagan.

Kalit so‘zlar: tilidan olingan terminlar, tani tashkil etadi, so‘zlar, pometalanishi

Аннотация: В данной статье даются этимологические сведения терминам с пометкой (q.x). В 6-томном «Толковом словаре узбекского языка» общее количество терминов, приведенных под пометкой «Сельское хозяйство» (q.x), составляет 59. В словаре не приводилась этимологическая информация словам, образованным суффиксальным способом от одного слова, в тех случаях, когда в ней не было необходимости. В статье этимологические сведения даны только тому слову, которое явилось основой словообразования, учитывая, что есть слова со с пометкой q.x, мы можем знать, что их в несколько раз больше, чем 59. Только этим словам, из-за отсутствия необходимости, пометки не ставились.

Ключевые слова: термины, взятые из языка, состав, слова, пометализация

Abstract: In the 6-volume "Annotated Dictionary of the Uzbek Language", the total number of terms given under the heading of agriculture (q.x) is 59. In the dictionary, information such as "Etymological information was not given to artificial words formed on the basis of the formation of one word, in cases where it was not necessary. Only the word on which the word was formed was given etymological information." taking into account that there are words with the word q.x, we can know that there are several times more than the number of 59. pometta is not placed. The etymological classification of terms such as those included in the explanatory dictionary of the Uzbek language.

Key words: terms taken from the language, make up, words, pometalization

KIRISH

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati “ katta hajmda so‘z boyligini, o‘zbek tilining adabiy til me‘yorlarini, so‘zlarning qo‘llanish holatini ko‘rsatib beruvchi manba hisoblanadi, u uch marta yaratilgan. 1981- yilda yaratilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ikki tomdan iborat edi. 1959- yilda nashr etilgan “O‘zbekcha-ruscha lug‘at” o‘zbek tilining birinchi izohli lug‘atini tuzish uchun asos bo‘ldi va uning ilmiy bazasini yuzaga keltirdi, lekin izohli lug‘atni tuzish uchun bevosita asos bo‘lgan. Unda o‘zbek leksikografiyasining tajribasi umumlashtirilgan, hozirgi zamon o‘zbek tilining leksik-semantik sistemasi, o‘tgan davrda shakllangan normalari birinchi marta keng tavsiflangan. “O‘zbekcha-ruscha lug‘at” me‘yoriylik tamoyiliga asoslangan. Izohli lug‘at ham o‘zbek tilining me‘yoriy lug‘ati.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Besh jildli lug‘atining birinchi nashri 2006-2008-yillarda “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi “ Davlat ilmiy nashriyoti tomonidan amalga oshirildi. 2020- yilda esa A.Madvaliyev tomonidan uning tuzatilgan 2-nashri tayyorlandi va ayni nashriyotda chop etildi va 2022- yilda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida nashr etilgan to‘ldirilgan va tahrir qilingan 6 jildli O‘TIL ham keng foydalanuvchilar auditoriyasi uchun o‘zbek tili bo‘yicha beqiyos manba ekanligi ma‘lum. Lug‘atning ushbu nashrida avvalgi nashrlarning tuzilishi, so‘zboshi, lug‘atdan foydalanish tartib to‘liq saqlanib, asosiy e‘tibor lug‘atning avvalgi nashriga kirmagan lug‘aviy birliklarni, muayyan so‘zlar doirasida paydo bo‘lgan yangi ma‘nolarini aniqlash, ularni lug‘at tarkibiga kiritish, lug‘at materiallarini ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan. Mazkur lug‘atlar nafaqat tildan foydalanuvchilar uchun, balki tilshunoslik sohasi uchun ham qimmatli ma‘lumotlar zahirasi hisoblanadi. Zero o‘zbek lug‘atchiligida bu kabi yirik leksikografik materiallar majmuyi yaratilishi lug‘atshunoslikda o‘ziga xos yutuq deb qaralishi bilan birga, sohada yangi bosqichni boshlab berdi, deya olamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

6 jildli O‘TIL da qisloq xo‘jaligiga (q.x) pometa ostida berilgan terminlarning umumiy soni 59 ta. Lug‘atda “Bir so‘z yasaliishi asosidan hosil qilingan yasama so‘zlarga, zarurat bo‘lmagan hollarda etimologik ma‘lumot berilmadi. Faqat so‘z yasaliishiga asos bo‘lgan so‘zgagina etimologik ma‘lumot berildi” kabi ma‘lumot borligini hisobga olib q.x pometali so‘zlar 59 sonidan bir -necha barobar ko‘pligini bilishimiz mumkin. Faqat bu so‘zlarga “zarurat bo‘lmagani uchun” q.x pometasi qo‘yilmagan.

Dunyo tillarning rivojlanish qonuniyatiga ko‘ra tilda mavjud leksika savdo-sotiq, qishloq xo‘jaligi, san‘at, sanoat, diplomatik aloqalar orqali boshqa tillardan o‘zlashish hisobiga boyib boradi. Biz bilamizki, ixtiro qayerda yaratilsa, o‘z nomi bilan bosqa tillarga o‘zlashadi. Shuningdek, “respublikamiz hayotining barcha sohalarida yuz berayotgan katta o‘zgarishlar, rivojlangan juda ko‘p mamlakatlar bilan aloqalarning tobora kuchayib borayotganligi qisqa vaqt mobaynida o‘zbek tili, xususan, uning leksikasi rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi”. Olinma so‘zlarning faollik darajasi ortishi tufayli o‘z qatlam so‘zlar chet tilidan o‘zlashgan so‘zlarga o‘z o‘rnini bo‘shatib berishi tabiiy hodisa. Bu jarayon terminologiyada

ham o‘z aksini topadi. Zero, terminlar tizimining xalqaro mezonlarga moslashtirilishi hodisasi terminologiyadagi milliy so‘zshakllardan ko‘ra umume’tirof etilgan internatsional birliklarning qo‘llanish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ayni paytda agrar soha terminlari ham boshqa xalqlar tomonidan qabul qilinayotganligi quvonchli. Masalan :uzum,tarvuz,zira,anjir,kishmish kabi terminlarimiz fonetik tamoyil asosida boshqa tillarga qabul qilingan, chunki bu mahsulotlar bizning zaminimizda yetishtiriladi. Biz bilamizki, mahsulot qayerda yaratilasa ,o‘z nomi bilan boshqa tillarga qabul qilinadi. Lekin ko‘pgina qishloq xo‘jaligi terminlari O‘TIL q.x pometasi ostida “zarurat bo‘lmagani uchun” berilmagan. 6 jildli O‘TILni tahlili natijasida agrar terminlarida olinma so‘zlarning salmog‘i katta ekanligiga guvoh bo‘ldik. Garchi agrar soha bizning uzoq o‘tmishimizga borib taqalsada. Ko‘pgina atamalar sheva pometasi ostida yoki tarixiy so‘zlar sirasiga kiritilgan. Bunga sabab o‘tmishdagi siyosiy jarayonlar ekanligi kundek ravshan. Ammo bu milliy tilda mavjud so‘zlarning agrar tushunchalarni ifodalay olish qobiliyatini past darajada baholashga sabab bo‘la olmaydi. Chunki qishloq xo‘jaligi terminologiyaning birliklari, asosan, mamlakat taraqqiyoti, soha rivoji, ixtirolar ,eksport bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi .

O‘zbek tilining katta hajmli qishloq xo‘jaligi terminologiyasida asosiy va umumiy deb qaralgan – o‘zbek tilining izohli lug‘atiga kiritilgan q.x pometali terminlarning etimologik xususiyati bo‘yicha tasnifi quyidagicha: Sof o‘zbekcha terminlar; arab tilidan olingan terminlar, fors tilidan olingan terminlar, rus tilidan olingan terminlar, lotin; yunon, ispan, fransuz, ingliz tilidan olingan terminlar .

Quyida 6 jildli O‘TILda mavjud agrar terminlarning yuqoridagi tasnif bo‘yicha tahlilini ko‘rib o‘tamiz.

Sof o‘zbekcha terminlar: Bu so‘zlar 22 tani tashkil etadi purkash, semiz, sepmoq, suvchi, tikma, uvat, ulamoq, urug‘lamoq, xato, omoch, paykal,

changitgich, changitish, chanqatmoq, chek, chilpimoq, chinoqchi, chopiq, shaltoqxona, o‘g‘itl agich, qalamcha ,qirma. Bu so‘zlardan purkash, semiz, sepmoq, ulamoq urug‘lamoq, xato, qalamcha ko‘p ma’noli hisoblansa; chek va tikma so‘zlari omonimlik shaklga ega. Paykal so‘ziga esa umumiy turkiy+forsiy so‘z etimologiyasi berilgan.

Arab tilidan olingan (asosi arabcha) so‘zlarning termin sifatida berilishi

2 tani tashkil etadi: madaniy, madaniyat. Bu so‘zlarning har ikkalasi ham ko‘p ma’noli hisoblanadi.

Fors tilidan olingan (asosi forsha) so‘zlarning termin sifatida berilishi 13 tani tashkil etadi: dandana, dakana, jo‘yak, koriz, marza, pol, pushta, xomtok, payvandi, payvandla-

moq, yagana, yaganachi, yaganalamoq. Bundan pol omonim ,pushta ko‘p ma’nolilik xususiyatiga ega.

Frantsuz tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi 1 tani tashkil etadi : marker. U ham omonimlik xususiyatiga ega.

Nemis tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi aniqlanmadi.

Lotin tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi 9 tani tashkil etadi: gerbitsit, gums, defolent, defolatsiya, kvadratuyalab (lotin+o‘zbek) konsentrant, seleksiya, plan taj. Bundan konsentrant, seleksiya ko‘p ma’nolilik xususiyatiga ega.

Yunon tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi 5 tani tashkil etadi: gidroponika, gipslamoq, diskalamoq, disk, mikroo‘g‘it, (yunon+o‘zbek), nitratlar. Bundan gipslamoq ko‘p ma’nolilik xususiyatiga ega.

Ingliz tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi 3 tani tashkil etadi: kompast, chizellash, chizel.

Ispan tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi 1 tani tashkil etadi: silos.

Rus tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi 2 tani tashkil etadi: seyalka, chekanka.

Bundan tashqari, o‘zbek tilida til boyishining ichki imkoniyatlari asosida yoki turli tildan o‘zlashgan so‘zlarning kombinatsiyasidan yoxud ularni juftlash yordamida hosil bo‘lgan terminlar ham mavjud: arab+fors: zotdor, asalari ; arab+fors+o‘zbek: asalarichilik; o‘zbek+lotin: suv bioresurslari; yunon+arab: agrokimyo, yunon+o‘zbek: bioxilma -xillik; -lik-chilik affiksi yordamida o‘zbekchalashtirilgan terminlar ham shular jumlasidan (baliqchilik, asalarichilik, qorako‘lchilik). Lekin bunterminlar ham q.x pometa ostida berilmagan. Ingliz tilidan yangi terminlarning faol o‘zlashtirilishi tufayli XX asrning so‘nggi o‘n yilligida muhim o‘zgarishlarga uchragan turli tizimlar (shuningdek, unga kiritilgan terminlar) dan farqli ravishda qishloq xo‘jaligi sohasi va uning atamaları tubdan o‘zgartirilmagan .

XULOSA

Ta’kidlash joizki, frantsuz, lotin, yunonchadan olingan so‘zlardan deyarli barchasining o‘zbek tilida termin sifatida qo‘llanishi rus tili orqali ro‘y bergan. Mazkur terminlarning talaffuz va imlo masalalari ham aynan rus tili orqali o‘zlashtirilgan. Qishloq xo‘jaligi pometa ostida berilgan terminlarning etimologik jihatdan foiz ko‘rsatkichini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, unda sof o‘zbek tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida qo‘llanish holati q.x pometa terminlar umumiy miqdorining 37 %ini tashkil etadi. Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarning termin sifatida berilishi 3 %. Fors tilidan o‘zlashgan so‘zlarning termin sifatida izohli lug‘atda pometalanishi 24 % ini, lotin tilidan o‘zlashgan so‘zlarning termin sifatida izohli lug‘atda pometalanishi 15 % dan iborat. Yunon tilidan 8% ini. Frantsuz, ingliz, rus tillaridan 1%, 5%, 3%dan iborat. Nemis tilida pometalanish kuzatilmadi. Ko‘rinib turibdiki, bu so‘zlarning ko‘p qismi umumturkiylik xususiyatiga ega ekanligini inkor etmagan holda sof o‘zbekcha so‘zlarning salmog‘ini oshirish xalqimizning o‘z tilidan kengroq va soha tili sifatida foydalanish qamrovini oshirishga xizmat qilishini ta’kidlash lozim. Albatta, O‘TIL keng xronologik doirada o‘zbek tilining butun so‘z boyligini emas, balki hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilining keng iste’moldagi so‘z boyligini to‘plash va tavsiflashni o‘ziga maqsad qilib qo‘yadi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sobirova E‘zoza Shuhrat qizi . “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da huquqiy termlarning berilishi. Falsafa fanlaridess 2020.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot - matbaa, 2023.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi
4. S. Usmonov Umumiy tilshunoslik. Pedagogika institutlarining Filologiya fakultetlari uchun darslik. O‘qituvchi nashriyoti. Toshkent- 1972